

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ASLONOV FIRDAVS BAXTIYOR O‘G‘LI

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA “BAYRAM” KONSEPTINING
VOQELANISHI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Aslonov Firdavs Baxtiyor o‘g‘li

Olamning lisoniy manzarasida “bayram” konseptining voqelanishi
(ingliz va o‘zbek tillari materialida) 3

Аслонов Фирдавс Бахтиёр угли

Актуализация концепта “праздник” в языковой картине мира
(на материале английского и узбекского языков) 29

Aslonov Firdavs Bakhtiyor ugli

The actualization of the concept “holiday” in the lingual world view
(on the material of the English and Uzbek languages) 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 60

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ASLONOV FIRDAVS BAXTIYOR O‘G‘LI

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA “BAYRAM” KONSEPTINING
VOQELANISHI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirlarligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil1990 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda “ZiyoNyet” Axborot-ta‘lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sulaymanova Nilufar Djabbarovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rustamov Ixom Tursunovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “29” May soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (63163-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “13” May kuni tarqatildi.
(2026-yil “13” May dagi № 345 -raqamli reyestr bayonnomasi)



T.A. Bushuy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon tilshunosligida olamning milliy-madaniy, kognitiv-mental va lisoniy manzarasini tahlil qilish, ayniqsa, turli xalqlarning mental-ruhiy qadriyatlarini til vositasida ifodalash xususiyatlarini aniqlash ustuvor yoʻnalishlardan biridir. Turli tillarda mazmun va shakl jihatidan oʻxshash yoki farqli ifodaviy vositalarni qiyosiy oʻrganish, shuningdek, madaniyatlararo anglanishni taʼminlovchi konseptual birliklarni tahlil qilish, bugungi lingvistik tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismi boʻlib xizmat qilmoqda. Xususan, “bayram” konsepti kognitiv-mental kategoriya sifatida muayyan xalqning milliy-madaniy, axloqiy-estetik va ijtimoiy qadriyatlarini oʻzida mujassam etgani sababli, ushbu konseptning lisoniy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, uning universal va milliy xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ushbu konsept doirasida umuminsoniy, ilmiy-maʼrifiy, maʼnaviy-madaniy qadriyatlarining uygʻunligi, shuningdek, turli xalqlar tafakkuri va til tizimidagi namoyon boʻlish shakllari lingvistik tadqiqotlar kontekstida chuqur oʻrganilmoqda.

Bugungi kunda yetakchi ilmiy maktab va markazlarda kognitologiya, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik hamda olamning lisoniy manzarasi doirasida olib borilayotgan qiyosiy-tipologik izlanishlar, inson tafakkurining til vositasida namoyon boʻlishini keng qamrovda yoritishga xizmat qilmoqda. Xususan, turli tillarda ilm-u fan, bilim darajasi va aqliy salohiyatni aks ettiruvchi leksik, frazeologik va paremiologik birliklarning ekvivalent variantlarini aniqlash masalasi tobora koʻproq eʼtiborni tortmoqda. Ayniqsa, “bayram” konsepti bugungi kunda antropologik paradigma doirasida faol tadqiq qilinayotgan tushunchalardan biri boʻlib, uning lingvokognitiv, lingvomadaniy va pragmatik oʻziga xosliklari hali kognitiv-pragmatik jihatdan toʻliq ochib berilmagan. Shuningdek, til tizimidagi zamonaviy oʻzgarishlar bevosita insonning fikrlash, anglash, idrok etish, tahlil qilish va baholash jarayonlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu holat olamning lisoniy manzarasida oʻz aksini topmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy madaniyat va tafakkur modelining til vositasida aks etishini tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon boʻlmoqda.

Mamlakatimizda istiqlol yillarida turli millatlar ongidagi bayramlarni oʻtkazish jarayonining lisonida aks etish holatlarini aniqlash, qiyoslanayotgan tillar madaniy xususiyatlarining lisoniy shakllarini toʻgʻri tanlay olishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga eʼtibor qaratilgan boʻlib, ingliz va oʻzbek tillarida “bayram” konseptining tilda, yaʼni til birliklarida ifodalanishi kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va semantika nuqtai nazaridan tahlil qilish muammosi yaxlit tarzda oʻrganilmagan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “...xalqimiz asrlar davomida ogʻir va mashaqqatli, sinovli paytlarda ham bu bayramni olijanob tabiati va qadriyatlari bilan asrab-avaylab kelgani chinakam moʻjizadir”¹. Ingliz va oʻzbek tillaridagi ilmiy-maʼrifiy olam manzarasi, turli madaniyatlardagi ilm-fan qadriyatining izohi,

¹ Sh.Mirziyoyev. Navroʻz shodiyonasidagi bayram tabrigi. Kun.uz, <https://kun.uz/news/2025/03/21/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-xalqini-navroz-bayrami-bilan-tabrikladi> (Muroaat sanasi:23.05.2025).

tilning leksik, frazeologik, paremiologik va matn sathlarida “bayram” konseptining ifodalanishi, namoyon bo‘lish imkoniyatlari, lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilish hamda kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va pragmatika bilan bevosita bog‘liqlikda o‘rganish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kognitiv tilshunoslik asoslari va olamning lisoniy manzarasiga oid muammolar quyidagi xorijiy olimlar ilmiy ishlarida tahlilga tortilgan: A.Cruse, W.Craft, Ch.J.Fillmore, W.Humbolt, R.Dirven, J.R.Taylor, Y.Suneetha, G.M.Sunderavalli² va boshqalar.

Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik aspektlarda til va ongning o‘zaro bog‘liqligi hamda til tizimida aks etiladigan madaniyat haqida N.F.Alefirenko, N.N.Boldirev, A.Vejbiskaya, E.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, V.V.Vorobyov, V.I.Karasik, G.V.Kolshanskiy, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova kabi rus olimlari³ ilmiy ishlarni amalga oshirganlar.

² Alan Cruse and William Craft. *Cognitive Linguistics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 356 p.; Fillmore Ch.J. *Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul, 1982. – 192 p.; Humbolt W. *On language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species*. (translated by Peter Heath). – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 544 p.; Dirven R., Taylor J.R. *The conceptualization of vertical space in English // Topics in cognitive linguistics/ Ed. by B. Rudzka-Ostyn*. – Amsterdam, Philadelphia, 1988. – P. 379-402; Suneetha Y. and Sunderavalli G.M. *Incorporating cross-cultural communication in ELT: a pedagogical approach // Journal of Language and Culture Study*. – Kyoto: Kyoto University, 2009. - № 6(4). – P. 87-94; Taylor A. *Selected writings on proverbs*. – Helsinki, 1975. – 203 p.

³ Алефиренко Н.Ф. *Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие*. – Москва: Флинта-Наука, 2010. – 224 с.; Болдырев Н.Н. *Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии: Учеб. пособие. Изд.5-е, стер.* – Москва-Берлин: Direct Media, 2016. – 168 с.; Вежицкая А. *Язык. Культура. Познание*. – Москва: Академия, 1997. – 416 с.; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. *Язык и культура*. – Москва: Русский язык, 1990. – 246 с.; Воробьев В.В. *Лингвокультурология: теория и методы*. – Москва: Изд-во РУДН, 2008. – 240 с.; Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Москва: Гнозис, 2004. – 282 с.; Колшанский Г.В. *Объективная картина мира в познании и языке*. – М.: Наука, 2018. – 120 с.; Кубрякова Е.С. *Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.; Маслова В.А. *Введение*

Vatanimiz olimlari orasida o‘z ilmiy ishlarini kognitiv tilshunoslik, pragmatika, diskursiv lingvistika, til va madaniyatning o‘zaro aloqasiga bag‘ishlagan quyidagi tilshunoslarning nomlarini tilga olish mumkin: D.U.Ashurova, D.B.Agzamova, T.A.Bushuy, M.R.Galiyeva, D.A.Kiselyov, A.E.Mamatov, N.Z.Nasrullayeva, Sh.S.Safarov, Sh. Usmanova, O‘.K.Yusupov⁴ va boshqalar. Aynan bayram va qadriyatlar mavzusiga oid M.Juraev, J.To‘lanov, N.Uloqov, H. Soloxadjayev, U. Qoraboyev⁵ va boshqalar bir qator tadqiqot ishlarni olib borgan. Jumladan, M.Juraev Navruz bayramining mohiyati va tarixini ochib bergan, J.To‘lanov qadriyatlar falsafasini yoritib bergan, N.Uloqov bayram turizmi va uning yo‘nalishlari haqida monografiya chiqargan hamda H.Soloxadjayev va U.Qoraboyev hammuallifligida o‘zbek va turk geortonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “bayram” konseptining semantik maydoni va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda qiyoslanayotgan tillarda “bayram” konseptiga oid izomorfik va allomorfik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“bayram” konseptining ingliz va o‘zbek tillarida inson ongi va tafakkuri bilan bog‘liq milliy-madaniy va kognitiv-mental mazmunini yoritish hamda semantik maydonini tadqiq qilish;

ingliz va o‘zbek tillarida “bayram” konseptining semantik va lingvomadaniy o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilish va qiyoslanayotgan tillarda ularning izomorfik va allomorfik jihatlarini yoritish;

chog‘ishtirilayotgan tillarda “bayram” konseptining semantik jihatlarini leksik, frazeologik va paremiologik sathlarda qiyosiy aspektda o‘rganish;

в когнитивную лингвистику: Учеб. пособие. – 3-е изд., испр. – Москва: Флинта, Наука, 2007. – 296 с.

⁴Ашурова Д.У. Когнитивная лингвистика: теоретические и методологические проблемы // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд, 2012. – № 2 (43). – С.7-11; Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 160 p.; Agzamova D.B. «Хотира» концептининг инглиз ва ўзбек тилларидаги умумий ва ўзига хос хусусиятлари: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: НУУ, 2012. – 25 с.; Бушуй Т.А. Язык в истории развития человеческой мысли. – Ташкент: Фан, 2011. – 384 с.; Киселёв Д.А. Репрезентация и анафорические единицы французского языка: функциональный аспект. – Ташкент: Навруз, 2019. – 166 с.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Навруз, 2019. – 280 б.; Насруллаева Н.З. Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2018. – 250 с.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: Челябинский государственный институт культуры, 2018. – 315 с.; Усманова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент: ТошДЎТАУ, 2019. – 245 б.; Юсупов У.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илм.-амал. конф. матер. – Тошкент, 2011. – Б. 28-32.

⁵Жўраев М. Навруз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – 230 б.; Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент, 1998. – Б.73.; Улоқов Н. Байрам туризми ва унинг yo‘nalishlari hamda manbalari. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 100 б.; Улоқов Н., Soloxadjayev Н., Qoraboyev U. O‘zbek va turk geortonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 124 б.

tahlil qilinayotgan tillarda “bayram” konseptining badiiy va publitsistik matnlarda ifodalanish uslubi, til vositalari va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarida “bayram” konseptini ifodalovchi leksik, frazeologik va paremiologik birliklar tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillarida “bayram” konseptining semantik maydoni hamda lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada deskriptiv, kognitiv-konseptual, qiyosiy-chog‘ishtirma, tasniflash usuli, madaniyatlararo va statistik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida aks etilgan “bayram” konseptini tizimli chog‘ishtirma tahlil qilish asosida milliy ong va tafakkurga tayangan kognitiv-mental mazmuni yoritilgan hamda mazkur konseptning leksik-semantik maydon doirasidagi universal jihatlar va milliy-madaniy nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlari misollar orqali dalillangan;

qiyoslanayotgan tillarda “bayram” konseptining “vaqt” kategoriyasi, bayramni ifodalovchi semantikasi, struktur-konseptual mazmuni bilan bog‘liq izomorfizmlar hamda bayramlarni nishonlash jarayoniga oid pragmatik ma’no, bayramlar tarixi, madaniy vazifalari, ramzlari, turlari va kognitiv-aksiologik mazmunidagi allomorfizmlar aniqlangan;

“bayram” konseptining ziyofat, tantana, tabrik-tilak, mehmon, sovg‘a kabi freymlarining denotativ va konnotativ-kontekstual ma’nolari ochib berilgan hamda mazkur konseptning semantik xususiyatlari leksik tizimida, stilistik jihatlar frazeologik va paremiologik qatlamlarda, pragmatik mazmuni badiiy diskurs va publitsistik matnlar misolida yoritilgan;

“bayram” konseptining yadro va peroferiyasi, strukturasi va madaniy ma’nosi badiiy va publitsistik matnlarda faollashuvi misolida aniqlangan hamda mazkur konseptni ifodalovchi lisoniy birliklarni tarjima qilish usullari ingliz va o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati, milliy stereotiplari bilan bevosita bog‘liqligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“bayram” konseptiga oid lisoniy birliklar bayram turlari, nishonlash maqsadi va lingvomadaniy jihatlar bo‘yicha tasniflangan;

“bayram” konseptini ifodalovchi ingliz va o‘zbek tabrik so‘zlarining tarjimalari va ekvivalentlari ishlab chiqilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi “bayram” konseptiga oid leksik, frazeologik va paremiologik birliklari tematik guruhlar bo‘yicha ajratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan yondashuv va vositalarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat’iyiligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalar joriylanishining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning olamni ilmiy-ma’rifiy va lingvomadaniy nuqtai nazardan anglashi va bunday o‘ziga xosliklarning umumiy va xususiy jihatdan lisonda ifodalanishi tahlil qilinishning muhimligi bilan belgilanadi. Shuningdek, til va tafakkurning tilda ifodalanishini o‘rganishda, semantik maydonlarni aniqlashda nazariy asos vazifasini o‘taydi. Dissertatsiya ishining nazariy xulosalari qiyosiy leksikologiya, frazeologiya, lingvomadaniyatshunoslik va matnni sharhlash manbalarini boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, matn lingvistikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, tanlov fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, kurs va bitiruv-malakaviy ishlarini yozishda, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda, maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Bayram” konseptiga oid ingliz va o‘zbek tillaridagi lisoniy birliklarning semantik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida aks etilgan “bayram” konseptini tizimli chog‘ishtirma tahlil qilish asosida milliy ong va tafakkurga tayangan kognitiv-mental mazmunini yoritish hamda mazkur konseptning leksik-semantik maydon doirasidagi universal jihatlar va milliy-madaniy nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarini dalillashga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Millat va ma’naviyat”, “Ta’lim va taraqqiyot” nomli dasturlari ssenariysining 2025-yil fevral va avgust oylari sonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga qarashli “O‘zbekiston-24” telekanalining 2025-yil 19-noyabrdagi 05-09-1860-son ma’lumotnomasi). Natijada, “bayram” konseptiga oid leksik birliklar xalqning tarixiy merosi, diniy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligi, ularning qo‘llanishi tilda madaniy ko‘lamni aks ettirishi xususida tasavvurlarning boyishiga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillarda “bayram” konseptining “vaqt” kategoriyasi, bayramni ifodalovchi semantikasi, struktur-konseptual mazmuni bilan bog‘liq izomorfizmlar hamda bayramlarni nishonlash jarayoniga oid pragmatik ma’no, bayramlar tarixi, madaniy vazifalari, ramzlari, turlari va kognitiv-aksiologik mazmunidagi allomorfizmlarni aniqlashga oid xulosalardan 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan AQShning Toshkent shahridagi elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan - “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 12-noyabrdagi 3561/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, jahon xalqlarining umuminsoniy, ilmiy-ma’rifiy va ma’naviy-madaniy qadriyatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni yoritish hamda tillarning milliy-ma’daniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish ishlari amalga oshirilgan;

“bayram” konseptining ziyofat, tantana, tabrik-tilak, mehmon, sovg‘a kabi freymlarining denotativ va konnotativ-kontekstual ma’nolarini ochib berish hamda

mazkur konseptning semantik xususiyatlari leksik tizimida, stilistik jihatlari frazeologik va paremiologik qatlamlarda, pragmatik mazmuni badiiy diskurs va publitsistik matnlar misolida yoritishga doir natijalaridan IL-662204405 raqamli “Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish (xorijiy til misolida)” nomli loyiha doirasida joriy qilingan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 4-dekabrda 04-04-1/6852-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida “bayram” konseptining turli tillardagi leksik-semantik tuzilmasi, u bilan bog‘liq madaniy qadriyatlar va milliy dunyoqarash unsurlari hamda “bayram” konseptini yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilgan;

“bayram” konseptining yadro va periferiyasi, strukturasi va madaniy ma’nosini badiiy va publitsistik matnlarda faollashuvi misolida aniqlash hamda mazkur konseptni ifodalovchi lisoniy birliklarni tarjima qilish usullarini ingliz va o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati, milliy stereotiplari bilan bevosita bog‘liqligini isbotlashga oid natijalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2022-2023-yillarda bajarilgan IL-21091378 raqamli “Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-noyabrda 04-01/6659-son ma’lumotnomasi). Natijada, bayramlarga oid leksik, frazeologik va paremiologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish orqali o‘zbek va ingliz tillari orasidagi madaniy tafovutlar, o‘xshashliklar va tarjima muammolari yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matni 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bayram” konsepti va uning til tizimida voqelanishi**” deb nomlangan birinchi bobi zamonaviy tilshunoslikda “madaniyat”, “lingvomadaniyat” va “madaniyatlararo” tushunchalar tahliliga, mavzuga oid nazariy qarashlar hamda bayram konseptining til va madaniyat tizimidagi oʻrni haqidagi qarashlarga bagʻishlangan. Shu oʻrinda madaniyatga taʼrif berishda baʼzi olimlarning moddiy madaniyatga, boshqalari esa insonning xulq-atvoriga eʼtibor qaratishini taʼkidlash joiz. Jumladan, U. Gudenaf madaniyatni jamiyat aʼzolarining ishtiroki masʼuliyati nuqtai nazaridan tushuntiradi. Uning taʼkidlashicha, “jamiyat madaniyati odamning shu jamiyat aʼzolari tomonidan qabul qilinadigan tarzda harakat qilishi va ular uchun maʼqul boʻlgan har qanday rolda ishtirok etishi uchun zarur boʻlgan bilim va eʼtiqodlardan iborat”⁶. K. Girts madaniyatni ramziy maʼnolar tizimi sifatida belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, “bu semiotik tizim boʻlib, unda ramzlar maʼnoni bir tafakkurdan boshqasiga yetkazish uchun ishlaydi. Madaniy ramzlar maʼlum bir shakl va uning ifoda etayotgan maʼnosi oʻrtasidagi bogʻlanishni ifodalaydi”⁷.

“Konsept” termini XX asrning 90-yillarida fanda keng qoʻllanila boshlandi. “Konsept” soʻzi lotin tilida “konseptus” soʻzidan olingan boʻlib, uning gumanitar fanlardagi lugʻaviy maʼnosi “tushuncha” demakdir. “Konsept” zamonaviy termin boʻlib, dastlab falsafa, lingvistika, psixologiya, adabiyotshunoslik, kulturologiya kabi gumanitar fanlarda qoʻllanilgan. Rus tilshunosi V.Z. Demyankov “konsept” terminining lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz va rus tillarida qoʻllanishini koʻrib chiqib quyidagi xulosalarga kelgan: a) dastlab, “konsept” termini lotin tilida konseptus “ibtidoiy, boshlangʻich holat” maʼnolarida qoʻllangan. Italyan va ispan tillarida konsept (consetto) badiiy matnlarda azaldan uchrab kelgan va koʻpgina idiomalarda uchraydi; b) nemis tilida esa konsept (konzept, konsept) termini “xom qolip” maʼnosida qoʻllangan. Ingliz tilida esa “konsept” falsafiy termin sifatida ishlatiladi. Rus tilida konsept 1920-yillardan boshlab, 1970-yillargacha “tushuncha” terminining sinonimi sifatida qoʻllangan.

Bayramlar har bir millatning madaniy hayotida muhim oʻrin tutadi. *Bayram* – keng maʼnoda bayramni, quvonchli va tantanali holatni ifodalaydi. Bunda insonlar oila, yaqinlar davrasida yigʻilishadi hamda bayramni birgalikda nishonlashadi. Ular nafaqat oʻziga xos bayramona kayfiyat, shodlik va quvonch keltiradi, balki bir xalqning tarixiy, diniy va milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini ham aks ettiradi. Bayramlar orqali xalq oʻz madaniyati va merosini avlodlarga yetkazadi, birlashadi, ruhiy birlikni kuchaytiradi. Ingliz va oʻzbek lisoniy madaniyatida bayramlarning ahamiyati alohida oʻringa ega boʻlib, har ikkala madaniyatda bayramlar til orqali ifodalanadi, xalqning ruhiy holatini, uning qadr-qiymatlarini, umidlarini aks ettiradi. Navbatda, ingliz va oʻzbek lisoniy madaniyatidagi bayramlarning ahamiyati, ularning tildagi ifodalanish shakllari va madaniyatdagi oʻrni haqida soʻz yuritiladi.

Oʻzbek xalqining bayramlari, asosan, milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar, mehnat va tabiat bilan bogʻliq boʻlib, bu bayramlar til orqali milliy merosning bir

⁶ Goodenough W. Cultural Anthropology and Linguistics // Proceedings of the American Philosophical Society, 1957. – P.47.

⁷ Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – P.56.

qismi sifatida ifodalanadi. O‘zbek tilida bayramlar bilan bog‘liq frazeologik birliklar, maqollar, hikmatlar, qo‘shiq va adabiyotda bayramlarning o‘zgacha o‘rni bor. Ular bayramning mohiyatini, uning xalq hayotidagi o‘rnini, shodlik va baxtni qanday ifodalashni ko‘rsatadi. O‘zbek tilida milliy bayramlar, ayniqsa, Navro‘z kabi qadimiy bayramlar, xalqning yangi yilga bo‘lgan umidlarini, tabiatning uyg‘onishini va insonlarning yangi yilga kirishdagi niyatlarini aks ettiradi. Misol tariqasida Navro‘z bayramini olib qaraymiz. Navro‘z – o‘zbek xalqining eng muhim bayramlaridan biri bo‘lib, nafaqat yangi yilni, balki yangi boshlanishni, bahorning kelishini nishonlashni anglatadi. Navro‘zda odamlar yangi yilni kutib olishda bir-biriga baxt, sog‘lik, farovonlik tilashadi. Bu bayramda sumalak tayyorlash, ko‘klam to‘plamlarini yig‘ish, uylarni tozalash, odamlar birgalikda vaqt o‘tkazish kabi an‘analar mavjud. Bu jarayonlar orqali xalq birlik, o‘zaro hurmat va yaxshi niyatlarni targ‘ib qiladi. Shuningdek, bayramlarga oid frazeologik birliklar – “Yangi yil, yangi baxt”, “Navro‘z – bahorning boshlanishi”, “Baxtning eshigini ochish” kabi ifodalar, milliy bayramlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Ingliz tilida bayramlar, asosan, diniy, milliy va madaniy jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin, ammo ularning umumiy mazmuni bir xil: bayramlar o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash, shodlik va quvonch keltirishga xizmat qiladi. Ingliz tilida eng muhim bayramlardan biri Christmas (Rojdestvo) bo‘lib, u Xristian dini bilan bog‘liq bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab keng nishonlanadi. Rojdestvo bayrami, ko‘plab oilalar uchun mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va samimiylik ramzi hisoblanadi. Ingliz tilida bayramlarga doir frazeologik birliklar ko‘plab ifodalarga ega, masalan: *“Ring in the new year”*, *“Spread holiday cheer”*, *“Deck the halls”* va boshqalar. Bu ifodalar, asosan, bayramning ijobiy hissiyotlarini va quvonchini ta’riflaydi.

Ingliz tilidagi bayramlar, o‘zbek madaniyatidan farqli o‘laroq, ko‘proq diniy va tarixiy voqealar bilan bog‘liq. Masalan, Christmas (Rojdestvo), Thanksgiving (Shukronalik bayrami), Easter (Pasxa) kabi bayramlar diniy ahamiyatga ega bo‘lib, ular ingliz xalqining diniy hayoti va urf-odatlarini bilan chambarchas bog‘liqdir. Ingliz tilida bayramlar, asosan, shodlik, minnatdorchilik va yaxshilikka intilish ruhini o‘z ichiga oladi. “Thanksgiving Day” bayrami, ayniqsa, ingliz tilida “thanks” (rahmat) so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, minnatdorchilik va birgalikda vaqt o‘tkazishning ramzidir. Ingliz tilidagi bayramlarning tilga yuksalgan ifodalari, odatda, samimiylik, baxt, va quvonchni ifodalovchi so‘zlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, “Merry Christmas!” va “Happy New Year!” kabi salomlashish shakllari, bayramdagi ijobiy kayfiyatni aks ettiradi. Bayramlar ingliz tilida ko‘plab o‘ziga xos frazeologik birliklar bilan ifodalanadi, masalan, *“to spread holiday cheer”* (bayram quvonchini tarqatish), *“to ring in the new year”* (yangi yilni kutib olish) kabi iboralar bayramning quvonchli va optimistik tomonini ko‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz madaniyatida bayramlarning ahamiyati ulkan. Bayramlar nafaqat quvonch va baxtni ifodalashning vositasi, balki bir xalqning madaniy merosi va qadriyatlarini til orqali avlodlarga yetkazishning yo‘lidir. O‘zbek tilidagi bayram frazeologizmlari ko‘proq tabiat, yangi yil va yangi boshlanishlar bilan

bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida bayramlar ko‘proq diniy va tarixiy voqealar bilan aloqador. Har ikkala madaniyatda ham bayramlar, ijobiy hissiyotlarni tarqatish, umidlar va yaxshiliklarga ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bayramlar milliy birdamlikni kuchaytiradi va xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Bayram” konseptiga oid ingliz va o‘zbek til birliklarining izomorfik va allomorfik xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va o‘zbek leksik, frazeologik va paremiologik birliklarida “bayram” konseptining ifodalanishi chuqur tadqiq qilingan hamda qiyoslanayotgan tillarda “bayram” konseptiga oid birliklarning izomorfik va allomorfik xususiyatlari aniqlangan.

Shunday bayramlardan biri qadimgi bobilliklar tomonidan nishonlanadigan sevgi va unumdorlik ma‘budasi bo‘lmish Ishtar sharafiga nishonlanadigan bayram edi. Bahorda bo‘lib o‘tgan bu bayramda unumdorlik ramzi sifatida tuxumlarni bezash va ma‘budaga in‘om qilish kabi marosimlar o‘tkazilar edi. Bu an‘analar oxir-oqibat boshqa madaniyatlarga tarqaldi va bugungi kunda biz biladigan Pasxa bayramining bir qismiga aylandi. Mazkur bayramda leksik birliklar qo‘llaniladi:

Resurrection – Tirilish, “qayta tug‘ilish” degan ma‘nolarni anglatadi. Pasxa bilan bog‘liqlik shundan iboratki, nasroniylar Iso xochga mixlanib o‘lganidan keyin, uch kundan keyin Pasxa yakshanbasi kuni tirilgan deb ishonishadi. *Lamb* – qo‘zi, qo‘yning bolasi. Bu nasroniylikning yana bir ramzi hisoblanadi. Bundan tashqari u bahor va yangi hayotning ramzi hamdir. Ko‘pgina nasroniylar Isoni “Xudoning Qo‘zisi” deb atashadi, chunki ular Iso insonlarning gunohlari uchun o‘lganiga ishonishadi, shunda ular Xudoning nazarida kechirilib, gunohlardan forig‘ bo‘lishadi. Shuning uchun lamb Iso Masihning ramzi bo‘lib, ko‘pincha qurbonlik va poklik kabi so‘zlar bilan bog‘lanib keladi. *Holy Week* – Muqaddas hafta – bu Pasxa yakshanbasidan oldingi haftani tasvirlaydi. Ammo “Muqaddas hafta” iborasi ingliz tilida keng tarqalgan emas. Bu asosan diniy kontekstda (cherkovga doir) ko‘proq uchraydi. *The Last Supper* – Oxirgi kechki ovqat – bu Iso Masihning hayotida sodir bo‘lgan voqea. Hikoyaga ko‘ra, Iso vafot etishidan bir kun oldin u shogirdlari (izdoshlari) bilan birga ovqatlangan. Ushbu taom hozirda “Oxirgi kechki ovqat” deb nomlangan va masihiylar uni “umumiylik” deb nomlangan marosim bilan nishonlashadi. *Good Friday* – “yaxshi juma” – Garchand to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimai “yaxshi juma” tarzida bo‘lsa ham, bu o‘rinda good so‘zi yaxshi deb emas balki muqaddas tarzida qo‘llaniladi. Boisi shuki, ushbu kunda Iso Masih xochga mixlangan va bu kunni eslatuvchi Pasxadan oldingi juma kuni. *Sacrifice* – qurbonlik. Insonning qurbonlik qilishi bu boshqa bировga yordam berish uchun ma‘lum bir narsadan voz kechish, qiyinchiliklarga o‘zini ro‘baro qilish tushuniladi. Nasroniylik e‘tiqodi bo‘yicha Iso o‘zini odamlar uchun qurbon qilgan. Ushbu atama Pasxa bayrami atrofida ishlatilishi shundan kelib chiqqan. O‘zbek xalqida ham ushbu so‘z mavjud bo‘lib, u ham aynan qurbonlik keltirish ma‘nosida talqin qilinadi. Lekin Islom diniga e‘tiqod qiluvchi xalqlarda ushbu so‘z Qurbon hayitga aloqador atama hisoblanib, bunda inson emas hayvonlarni qurbon qilish nazarda tutiladi. Sababi, Islom e‘tiqodiga ko‘ra insonlar emas balki, ma‘lum bir hayvonlar jumladan, qo‘y, mol, tuya va shu kabi hayvonlar qurbonlik uchun buyuriladi.

O‘zbek xalqi hayotida qadim zamonlarda bugunga qadar eng muhim, eng ommabop va qadriyatlarga boy bo‘lgan bir qator milliy bayramlar mavjud. Ularning har biri o‘zbek xalqi hayotining turli davrlarida yuzaga kelgan hamda uning evolyutsiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Ular o‘z mohiyati, nishonlanish vaqti hamda tartibiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Ularni o‘rganishda hamda tadbiiq etishda bir necha turlarga bo‘lib o‘rganish ularning asl mohiyatini chuqurroq o‘rganish va kelajak avlodlarga o‘z holicha, o‘zligini yo‘qotmagan holatda yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Bayramlarning turlari juda ham ko‘p har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ularni asosan quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Milliy bayramlar – bu davlatning tashkil topishi, davlatchilik asoslari, qonunlari, mustaqilligi yoki boshqa muhim voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan bayramlar. Ular odatda millat birligini, tarixiy voqealarni va jamiyatning o‘zligini nishonlash uchun o‘tkaziladi. Bularga:

Mustaqillik kuni – davlatning mustaqil bo‘lgan sanasini nishonlash. Masalan, O‘zbekistonda *Mustaqillik kuni* (1-sentyabr) davlat mustaqilligi e‘lon qilingan kuni.

Konstitutsiya kuni – davlatning asosiy qonunini qabul qilinishi bilan bog‘liq bayram. O‘zbekistonda 8-dekabr Konstitutsiya kuni sifatida nishonlanadi.

An’anaviy bayramlar – bu bayramlar avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tib kelayotgan bayramlar hisoblanib, xalqning madaniy va diniy urf-odatlarini bilan bog‘liqdir. Ular asosan xalqning qadriyatlarini, tarixiy an‘analari va ijtimoiy aloqalarini saqlab qolish maqsadida o‘tkaziladi.

Navro‘z – Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston bo‘ylab nishonlanadigan qadimiy bayram bo‘lib, bahorgi tengkunlikni nishonlaydi. Bu fors taqvimida yangi yilning boshlanishini anglatadi va yangilanish va qayta tug‘ilishni anglatadi. An‘anaga ko‘ra, odamlar sumalak, halim, ko‘k somsa, kabi maxsus taomlar tayyorlaydilar va uylarni tozalash, oilalarni ziyorat qilish bilan shug‘ullanadilar.

Qurbon hayiti – Islom diniga oid bayram bo‘lib, qurbonlik qilish va hayit namozini o‘qish bilan nishonlanadi.

Ramazoni hayiti – Ramazon oyining tugashi bilan nishonlanadigan diniy bayram. Bu ham Islom taqvimiga asoslanadi.

Muhim sana, kun nomlari – yuqorida nomlari sanab o‘tilgan bayramlardan tashqari ham nishonlanadigan bir qator muhim sanalar mavjud. Bularga mamlakat, xalq tarixida muhim, o‘chmas iz qoldirgan buyuk tarixiy shaxslarning tug‘ilgan kunlari, kasb bayramlari, e‘tiborga molik bo‘lgan ba‘zi kunlar kiradi. *Kun* lug‘aviy birligi oy va haftaning ma‘lum kalendar sanasi; ma‘lum hodisaga bag‘ishlangan sana ma‘nosi bilan turli kasb-hunar, soha, joy, voqea-hodisa nomlarini ifodalovchi va boshqa so‘zlarga qo‘shilib, geortonimlar tarkibida indikator vazifasida qo‘llaniladi. Masalan, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 15-may – Butunjahon oila kuni, 25-oktyabr – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni va boshqalar⁸. Kun nomlari ham ba‘zi xalqlarda nishonlanadigan bayramlar

⁸ Uloqov N., Soloxadjayev H., Qoraboyev U. O‘zbek va turk geortonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 88.

bo‘lib, faqat shu xalqqagina xos mahalliy bayramlar hisoblanadi, masalan hosilni yig‘ib olish, ekinlarni ekish, hayvonlar bayrami va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Qadimiy milliy bayram hisoblangan Navro‘z fors tilidan tarjima qilinganda “yangi kun” ma’nosini anglatadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navro‘zni bayram qilish axomaniylar davridan boshlangan va O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston xalqlarida eng katta bayramlardan biri hisoblangan ⁹. Navro‘z bayrami 21-mart kuni nishonlanadi va yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. Navro‘z bayrami kishilarga yaxshi *kayfiyat*, *samimiylik*, *zavqu shavq*, ilhom va g‘ayrat bag‘ishlaydi. Navro‘z bayramiga xos leksik birliklar sifatida quyidagilarni tahlilga tortdik.

1-jadval

Navro‘z bayramining asosini tashkil qiluvchi birliklar tasnifi

<i>Navro‘z sayli</i>	Navro‘z bayrami munosabati bilan xalq yurishlari, milliy o‘yinlar va yarmarkalar o‘tkaziladi.
<i>Dehqonchilik fasli</i>	Navro‘z – qishloq xo‘jaligi va yer haydash mavsumi boshlanishi bilan bog‘liq bayram
<i>Sumalak qaynatish</i>	Navro‘z bayramining asosiy taomi bo‘lib, uni tayyorlash jarayoni milliy qadriyat sifatida nishonlanadi
<i>Ko‘pkari musobaqasi</i>	Navro‘z bayrami munosabati bilan ot o‘yinlari, ko‘pkari musobaqalari tashkil etiladi.
<i>Haft sin</i>	Ba’zi sharq xalqlarida, jumladan, o‘zbeklarda ham Navro‘z dasturxonida yetti xil mahsulot (haft sin) qo‘yish odati bor
<i>Mehr va ahillik bayrami</i>	Navro‘z – odamlar bir-biriga mehr va ehtirom ko‘rsatadigan bayram
<i>Navro‘z dasturxon</i>	Milliy taomlar, yangi unib chiqqan sabzavot va ko‘katlar bilan
<i>Bahoriy xalq o‘yinlari</i>	Arqon tortish, tosh ko‘tarish, uloq kabi milliy o‘yinlar Navro‘z saylida o‘tkaziladi
<i>Milliy kuy va raqslar</i>	Bayram kunlari xalq hofizlari, doirachilar va raqqosalar milliy kuy qo‘shiqlar ijro etishadi
<i>Ko‘klam ifori</i>	Bahorning kelishi bilan havoda o‘ziga xos xushbo‘y hid tarqalishi, yashillik va gullarning ochilishi
<i>Ko‘k somsa</i>	Bahorning ilk ko‘katlaridan tayyorlanadigan somsa Navro‘z dasturxonida alohida o‘rin tutadi

Yangi yil bayrami va Rojdestvo bir-biriga juda yaqin sanalarda bo‘lishi sababli, ko‘plab Xristian mamlakatlarida bu ikki bayram bir-birini to‘ldirib, yangi yilni kutish va Iso Masihning tug‘ilishini nishonlash bilan birga o‘tkaziladi.

Yangi yil – Yangi yil bayramiga doir so‘zlar ko‘plab turli bayramlar va urf-odatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu so‘zlar Yangi yil bayramining ko‘plab turli

⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 6-ж. – Б.237.

jihatarini, an'analari va urf-odatlarini aks ettiradi. Bayramda *baxt, quvonch, yangilik va sevgi* to'la bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi. Mazkur bayramga oid bir qator leksik birliklar qo'llaniladi: *Yangi yil arafasi, Yangi yil kechasi, Yangi yil tilaklari, Yangi yil muborak!, Yangi yil archasi, Shamlar, Qorbobo va Qorqiz, Yangi yil sovg'alari, Karnaval.*

Frazeologik birliklar (yoki frazeologizm), bir nechta so'zlarning ma'lum bir tartibda birlashib, yangi, butunlay boshqacha ma'no hosil qiladigan leksik birliklardir. Frazeologik birliklar o'zida aniq va to'liq ma'no tashiydi, lekin bu ma'no so'zlarning bitta birikmasidan hosil bo'ladi. Har bir frazeologik birlik o'zida ijobiy yoki salbiy, tasviriy yoki metafizik ma'no ifodalaydi. Bu birliklar ko'pincha tasavvurga, obrazlarga tayanadi. Masalan: "*Dastlabki o'ylash*" – bu "birinchi marta tasavvur qilish" ma'nosini, "*O'zini yuqoriga ko'tarmoq*" – ya'ni, odamni o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va yaxshilashni anglatadi.

Christmas comes early (this year) – rojdestvo ertaroq keladi (bu yil). Ushbu ibora biror bir yaxshi va ijobiy yangilikning, voqeaning kutilganidan ko'ra ertaroq sodir bo'lishini, buning natijasida quvonch hamda hayajon olib keladigan holatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu ibora xuddi shu nomdagi qisqa metrajli filmdan so'ng paydo bo'lgan. 1936-yilda yaratilgan ushbu film bolalar uyida namoyish etiladi va ilk bor yangraydi.¹⁰ *Like turkey voting for early Christmas* – Xuddi rojdestvoning kelishiga ovoz bergan kurka kabi. Ushbu birikma to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda noto'g'ri ma'noni beradi. Mazkur holatda o'ziga bilib turib zarar keltirish, qasddan o'ziga ziyon yetkazish holatlariga ishora qiladi iboramiz. Sababi odatda kurka bu rojdestvo dasturxonining eng sevib iste'mol qilidigan taomlaridan hisoblanadi. O'zbek tilida ham ushbu ma'noni beruvchi *o'ziga o'zi chog' qazimoq* birikmasi ham mavjud. *The more – the merrier* – Qancha ko'p odamlar ishtirok etishsa, shuncha yaxshiroq bo'ladi. Odatda oilaviy yig'inlar va bayramlarda ishlatiladigan ushbu ibora dastlab salbiy ma'noda ishlatilgan dastavval, "*the fewer, the better fare*"- qancha kam odam bo'lsa shuncha ko'p ovqat bo'ladi degan ma'noda ishlatilgan hamda bu ko'plab tanqidlarga uchragan. Yillar o'tib ushbu ibora o'zgarishga uchradi hamda hozirgi holatga keldi. Hatto ushbu ibora nomi bilan ataluvchi asar ham mavjuddir. Uning muallifi Florans Mayklson hisoblanadi. Ushbu kitob kichik hajmli hikoyalar to'plamidir. Hatto ushbu ibora nomi bilan ataluvchi asar ham mavjuddir. Uning muallifi Florans Mayklson hisoblanadi.

Masalan: *Is it ok if my friends come to dinner? Do'stlarim tushlikka kelsalar maylimi? Sure! The more the merrier.* – Albatta! Qancha ko'pchilik bo'lsa shuncha yaxshi.

Bunda tashqari, *Do not look a gift horse in the mouth* – (*It means – Do not be ungrateful when you receive something*). Ushbu iboraning o'zbekcha to'g'ridan to'g'ri ekvivalenti yo'q. Ammo, ma'nosi "boriga qanoat qil" yoki "boriga baraka" kabi birliklarga yaqin keladi.¹¹

¹⁰ Oxford Dictionary of Idioms. – Second edition. – Oxford: Oxford University press, 2004. – 340 p.

¹¹ Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. –738 с.

Deck the Halls – (*To deck the halls means to decorate one's home with Christmas decorations*). Ushbu ibora dunyoga mashhur bo'lgan qo'shiqdan olingan. Ma'nosi bayram oldidan tayyorgarlik ko'rib, xonalarni bayramona ruhga keltirishni bildiradi. Ya'ni turli xil bayram bezaklari bilan bezatiladi. Kelib chiqishiga ko'ra, ushbu ibora Uels davlatiga borib taqaladi. Jumladan, ushbu qo'shiqda quyidagi jumlar bor: "*Deck the halls with boughs of holly*".

To trim the tree – daraxtni kesish. Bu o'rinda *trim* fe'li kesish emas balki bezatish ma'nosida qo'llanilmoqda. Rojdestvo archasini turli xil bezaklar, o'yinchoqlar va shu kabi jihozlar bilan bezatishni nazarda tutadi.

"Shukronalik kuni" (thanksgiving) bayramiga doir bo'lgan qator frazeologik birliklar tahlili amalga oshirilgan bo'lib ularga xos bo'lgan umumiy jihatlar aniqlandi hamda ularning o'zbek bayramlari va mentalitetida uchrashi mumkin bo'lgan muqobillari aniqlab, tahlil qilindi. Ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Talk turkey – Ochiq va to'g'ridan-to'g'ri gaplashmoq, ko'pincha jiddiy masala haqida. Masalan, muhim yoki jiddiy mavzuda hech qanday chekinishsiz ochiq va aniq gaplashishni anglatadi.

Stuffed to the gills – Juda to'yib qolganlik hissi, masalan, Shukronalik bayramidagi katta taomdan keyin qorin juda to'lganlikni his qilishni ifodalovchi frazeologik birlik.

Quit cold turkey – Biror narsani keskin tark etish, ko'pincha yomon odatlardan voz kechish haqida aytiladi, lekin bayramdagi qolgan kurka go'shtiga ham ishora qilishi mumkin. Biror zararli odatdan to'satdan voz kechish, odatda sigareta yoki ichimlik kabi yomon odatlardan tezda chiqib ketish jarayoni.

Turkey trot – Ba'zi jamoalarda Shukronalik bayramida o'tkaziladigan an'anaviy yugurish musobaqasi. Shukronalik bayrami paytida ko'p joylarda o'tkaziladigan yugurish musobaqasi.

Break the wishbone – Shukronalik bayrami an'anasi bo'lib, ikki kishi kurka suyagining tilak suyagini tortib ajratadi va kattaroq bo'lagini olgan kishi tilak tilaydi. Kurkaning o'rtasidagi suyakni ikkiga ajratish an'anasi, g'olib kishi tilak tilaydi.

Count your blessings – Hayotdagi yaxshi narsalar haqida o'ylab, ularning qadriga yetish va shukr qilish. Hayotdagi barcha yaxshi narsalarni yodga olib, ularga minnatdor bo'lishni anglatuvchi ibora.

Feast your eyes – Biror narsani ko'rib zavqlanish, ko'pincha mazali taomni ko'rish kontekstida ishlatiladi. Biror narsani ko'rib zavqlanish, ayniqsa chiroyli taom yoki yoqimli ko'rinishni tomosha qilish bilan bog'liq.


Harvest the fruits of your labor – Mehnat qilingandan keyin uning natijalaridan bahramand bo'lish, Shukronalik bayramidagi hosilni yig'ishga o'xshatiladi. Mehnat qilgandan so'ng natijalardan foyda olish yoki zavqlanishni ifodalaydi, mehnatning hosili degan ma'noda.

Stuffed like a turkey – haddan tashqari to'yib ovqat yeyish va bo'kib qolish holatini ifodalaydi, xuddi bayram kurkasi ichini har xil sabzavot, ziravorlar bilan to'ldirilgan holatdagi ko'rinishiga qiyoslanmoqda.

Break bread together – bayram kunlari taomni boshqalar bilan bo'lishish, yaqinlarga, qo'shnilariga ulashish ma'nosini beradi. Bu ibora yaqinlik, birlik,

do'stlik ramzi sifatida ham talqin qiladi. O'zbek tilida – *qo'li ochiq* iborasiga sinonim sifatida qarasa bo'ladi.

Sovg'alar kuni – Rojdestvo bayramidan keyingi kunda nishonlanadigan ushbu bayram qachonlardir muhtojlarga sovg'alar ulashish uchun sovg'alar sotib olinadigan kun hisoblanib, oddiy kunlardan biri bo'lgan. Ushbu bayram bilan ko'plab leksik birliklar va frazeologik birliklar mavjud. Ular ham o'ziga xos ishlatilish o'rni, holatiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi. Quyidagi diagrammada bunga to'xtalib o'tilgan.



1-rasm. Boxing Dayga oid bo'lgan iboralar va ularning turlari

Boxing Dayga oid iboralar: *“The day after Christmas”* – Rojdestvodan keyingi kuni anglatadi, lekin bu kun ko'pincha dam olish yoki bayram kayfiyatining davomiyligini ham nazarda tutadi. O'zbekcha ta'rifi: Rojdestvodan keyingi dam olish kuni, odatda oilaviy hordiq va xotirjamlik vaqti sifatida qabul qilinadi. **“Boxing Day sales”** – Boxing Day kuni katta chegirmalar va savdo imkoniyatlarini ifodalaydi. O'zbekcha ta'rifi: Boxing Day kuni do'konlarda katta chegirmalar va savdo tadbirlari o'tkaziladigan vaqt. **“It's better to give than to receive”** – Sahiylikni targ'ib qiluvchi ibora, Boxing Dayda sovg'a berish an'anasiga mos keladi. O'zbekcha ta'rifi: Biror narsa olishdan ko'ra uni boshqalarga berish yaxshiroq ekanligini ta'kidlaydigan ibora. **“Spread the wealth”** – Boshqalar bilan boylikni bo'lishishni anglatadi, Boxing Dayning xayriya ruhiyatiga mos keladi. O'zbekcha ta'rifi: Boylik yoki imkoniyatlarni boshqalar bilan bo'lishishni anglatadi. **“A token of appreciation”** – Minnatdorchilik belgisi sifatida kichik bir sovg'ani ifodalaydi, Boxing Daydagi sovg'a berish an'ansi bilan bog'liq. O'zbekcha ta'rifi: Minnatdorchilik bildirish uchun beriladigan kichik sovg'a yoki ishora. **“No act of kindness, no matter how small, is ever wasted”** – Kichik bo'lsa ham hech bir mehribonlik amali zoye ketmasligini ta'kidlaydigan ibora, Boxing Daydagi xayriya bilan bog'liq. O'zbekcha ta'rifi: Har qanday, hatto eng kichik yaxshilik ham qadrsiz qolmasligini ifodalaydigan ibora. **“Give back to**

the community” – Xayriya tadbirlari chog‘ida ishlatiladigan ibora, Boxing Daydagi muhtojlarga yordam berish an‘anasi bilan bog‘liq. O‘zbekcha ta‘rifi: Jamiyatga foyda keltirish yoki ularga yordam berish harakatini anglatadi. **“Shop till you drop”** – Ko‘p xarid qilishni ifodalaydi, Boxing Day savdolari bilan bog‘liq. O‘zbekcha ta‘rifi: To‘xtovsiz xarid qilishni anglatadi, odatda katta savdo kunlarida ishlatiladi. **“Bargain hunting”** – Eng yaxshi chegirmalarni qidirish jarayonini ifodalaydi, Boxing Day savdolariga mos keladi. O‘zbekcha ta‘rifi: Eng yaxshi narxlarni qidirish va imkoniyatlarni kuzatishni anglatadi. **“A steal”** – Juda yaxshi chegirmani ifodalaydi, Boxing Day savdolaridagi katta chegirmalarni tasvirlashda ishlatiladi. O‘zbekcha ta‘rifi: Juda arzon yoki foydali xaridni ifodalaydigan ibora. **“Money well spent”** – Pulning foydali sarflanganligini bildiradi, Boxing Daydagi xaridlar bilan bog‘liq. O‘zbekcha ta‘rifi: Qadrlı yoki maqsadga muvofiq xaridni anglatadi. **“First come, first served”** – Birinchi kelganlarga eng yaxshi chegirmalar berilishini bildiradi, Boxing Day savdolari bilan bog‘liq. O‘zbekcha ta‘rifi: Birinchi kelgan odamlar eng yaxshi imkoniyatlardan foydalanishini bildiradi. **“Take it easy”** – Kimnidir dam olishga chaqiruvchi ibora, Boxing Daydagi xotirjam muhit bilan bog‘liq. O‘zbekcha ta‘rifi: Dam olishga, ortiqcha zo‘riqmaslikka chaqiradigan ibora. **“Put your feet up”** – Dam olib, tanaffus qilishni ifodalaydi, ko‘pincha Rojdestvodan keyin odamlar Boxing Dayda shunday qilishadi. O‘zbekcha ta‘rifi: Tanaffus qilib, dam olishni ifodalaydi, ayniqsa bayramdan keyin. **“Wind down”** – Band bo‘lgan davrdan keyin dam olishni bildiradi, Rojdestvo bayramidan keyin ishlatiladi. O‘zbekcha ta‘rifi: Bandlik yoki shovqinli davrdan so‘ng dam olishni anglatuvchi ibora. **“Chill out”** – Norasmiy tarzda dam olishni anglatadi, Boxing Dayda Rojdestvodan keyin odamlar odatda shunday qiladilar. O‘zbekcha ta‘rifi: Xotirjamlik bilan dam olishni bildiradigan norasmiy ibora.

Bundan tashqari quyidagi maqollar ham to‘y mavzusiga doir hisoblanadi. Bular: *to‘ying bo‘lsa, tomoshago‘y topilar, To‘ydan oldin nog‘ora qoqma, Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r, Kuyovni payg‘ambarlar siylabdi, Umr savdosi – qiyin savdo, Er xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi, Qizi bor uy bozor* kabilar ham turli o‘rinlarda, turli vaziyatlarda qo‘llanilib, aynan to‘y tomosha mavzusini yanada ochib berishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek publitsistik va badiiy matnlarida “bayram” konseptining ask ettirilishi va uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida bir qator publitsistik matnlar hamda badiiy asarlar tanlab olindi hamda ulardan olingan parchalar tahlil qilindi.

Publitsistika – ommaviy axborot vositalarida bayramlar va ularga doir bayonotlarni keng ko‘lamda yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu matnlarda bayramlar bir tomondan milliy g‘urur, boshqa tomondan esa ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Bayram konsepti va uning publitsistik matnlarda qo‘llanilishi, turli davrlar va jamiyatlar orasida tarixi, madaniyati va qadriyatlarining qanday aks etganligini tahlil qilish ularning ijtimoiy ahamiyatini va kommunikativ kuchini tushunishga yordam beradi. Quyida ingliz tilida nashr etilgan ingliz matnlarida uchraydigan bayramga doir birliklarni ko‘rib chiqamiz.

*For many Christians in the U.S., Easter is an occasion to celebrate the good news of Jesus' resurrection – oftentimes with chocolate bunnies and Cadbury eggs faithfully involved. But Easter is a more complicated holiday than its saccharine, festive connotations let on. Even when Christians have done their best to convey the deep importance of the cross and resurrection for our lives, this message is often misconstrued or missed altogether.*¹² “Ko‘plab amerikalik xristianlar uchun Pasxa – Iso Masihning tirilishi haqidagi xushxabarni nishonlash uchun tashkil qilinadigan o‘ziga xos tadbir, aksariyat hollarda u “shokoladli quyunchalar” va “Kadburiy tuxumlari” bilan nishonlanadi. Lekin, Pasxa bayrami bu kabi shirinliklar, bayramona shodiyonalar yoki tantanalardan ko‘ra ancha kattaroq ma‘noga ega. Xristianlikka e‘tiqod qiluvchilar qanchalik Xoch va tirilishning hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirishga nechog‘lik harakat qilsalar ham, bu xabar ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinadi yoki butunlay unutib yuboriladi” (tarjima bizniki). Yuqorida keltirib o‘tilgan parchada Pasxa bayramiga doir bo‘lgan bir qancha leksik birliklar qo‘llanilgan. “*Jesus' resurrection*” birikmasi “Isoning qayta tirilishi” ma‘nosini ifodalovchi ushbu birikma Xristianlarning eng muhim va eng markaziy tushunchasi hisoblanadi. E‘tiqodga ko‘ra, Iso o‘ldirilgandan keyin 3 kundan so‘ng qayta tiriladi hamda bu orqali insonlarga yangi hayot, najot hamda umid baxsh etganligiga ishonadilar. “*Chocolate bunnies*” and “*Cadbury eggs*” ushbu birliklar mazkur bayramda asosan sovg‘a sifatida, bolalarni shod qilish uchun tuxfa qilinadi. Quyunchalar shakliga ega bo‘lgan shokoladlar hamda Kadburiy brendi tomonidan chiqariladigan tuxum shaklidagi sovg‘alar bayramning ajralmas qismlaridan biriga aylangan bo‘lib, insonlar qalbida o‘ziga xos bayram shukuhini yaratadi. “*Cross*” “xoch” – bu nasroniylikning eng muhim diniy ramzi hisoblanadi. Iso Masih xochda qurbon bo‘ldi hamda bu orqali nasroniylarning barcha gunohlari kechirildi va ular xudoning rahmatiga erishdilar deya ishonishadi. Bugungi kunda ham ushbu dinga e‘tiqod qiluvchilar turli xil xoch tasviri tushirilgan taqinchoqlarni taqib yurishlariga guvoh bo‘lish mumkin.

*Palm Sunday is followed by Holy Wednesday and Maundy Thursday. Maundy Thursday services often include foot-washing, to represent the actions of Jesus when he washed his disciples' feet during the Last Supper, and the stripping of the altar. Good Friday is a somber service recalling the anguish of Christ on the cross. Knowlin said that the events of Holy Week extend beyond services. Churches hold Easter egg hunts for children, and Columbia hosts a special event called Good Food, Good Feet, Good Friday, where volunteers wash the feet of the homeless, feed them breakfast, and give them medical attention if needed*¹³. – “Palmali Yakshanba” kuni “Muqaddas Chorshanba” va “Pok Payshanba” kunlari bilan uyg‘unlikda davom ettiriladi. Pok Payshanba odatda oyoqlarni yuvish amali bilan ifodalanadi, bu Isoning *So‘ngi kechki ovqatda* (Last supper) o‘zi shogirdlarining oyoqlarini yuvgan holatini ifodalaydi, shuningdek, bunda altarni

¹² Griffith R.M. The Complicated Commodification of Easter. *Cristianity today*, (<https://www.christianitytoday.com/ct/2023/april/easter-commodification-cross-resurrection-meaning.html>). (Murojaat sanasi: 21.08.2025)

¹³ Rackley K. Holy Week: Journey to the Resurrection //Carolina new and Reporter, 2018. (<https://carolinanewsandreporter.cic.sc.edu/holy-week-from-palm-sunday-to-holy-saturday>). (Murojaat sanasi: 16.09.20)

(ibodatxona maxsus stoli) tozalash amali ham mavjud. Muqaddas Juma (Good Friday) esa Iso Masihning xochda azob chekishini, uning o'zini insonlar uchun qurbon qilganligini yodga olish kunidir. Knowlin shunday dedi: "Muqaddas Hafta hodisalari faqatgina turli xil xizmatlar bilan cheklanmaydi". Cherkovlar bolalar uchun *Pasxa tuxumlarini qidirish* (Easter egg hunts) tadbirlarini o'tkazadilar, Kolumbiya shahrida esa maxsus tadbirlar - *yaxshi oziq-ovqat, yaxshi oyoqlar, Muqaddas Juma* (Good Food, Good Feet, Good Friday) tashkil etiladi, bunda ko'ngilli kishilar beva-bechora odamlarning oyoqlarini yuvib, ularga nonushta berib, agar kerak bo'lsa, tibbiy yordam ham ko'rsatishadi (tarjima o'zimizniki)".

O'zbekiston xalqining boy tarixiy merosi, urf-odat va an'analari, ayniqsa milliy bayramlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir bayram o'zida xalqimizning ruhiyati, qadriyatlari va ezgu orzu-umidlarini mujassam etadi. Shu bois ham bayramlarning ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa gazetalar orqali yoritilishi nafaqat axborot tarqatish, balki ma'naviy tarbiya, madaniy merosni asrash va jamiyatda birlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Avvalo, bu jarayon milliy qadriyatlarning keng ommaga yetkazilishiga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, gazetalar yosh avlodni tarixiy merosimiz, urf-odatlarimiz va an'alarimiz bilan tanishtiradi, ularni qadrlashga undaydi. Shu bilan birga, bayram mavzularida chop etilgan maqolalar, suhbatlar va intervyular fuqarolarda vatanparvarlik ruhini shakllantiradi. Ayniqsa, Vatanimiz mustaqilligi va suvereniteti bilan bog'liq bayramlar – xalqni birlashtiruvchi, birlik va g'urur tuyg'usini mustahkamlovchi vositaga aylanadi.

*Navro'z taomlari o'ziga xos bo'lib, ular orasida, ayniqsa, **sumalak, halim** tayyorlash an'anaviy odat tusiga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroklari, ayniqsa, juda faol bo'ladi. Ular Navro'z bayramida turli **ommaviy bayram o'yinlari** o'ynaydi. **Ot o'yin, chillak, qo'g'irchoq o'yin, tosh, lapar, ip o'yinlari** va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, bo'y qizlar, ayniqsa, **sumalak pishirish** marosimida faol ishtirok etish uchun unga ancha ilgariroq tayyorgarlik ko'rishadi. Bug'doy donini maxsus idishlarda qulay iqlim sharoiti yaratib, sabza qilib undirib olishadi. So'ng uni kecha-kunduzi bilan katta **doshqozonlarda** qaynatib, sumalak tayyorlashadi. Ayonki, tunu kun tinmay doshqozon qaynayversa, ancha-muncha o'tin yetmaydi. Shuning uchun har bir xonadon bir bog', yarim bog'dan, ishqilib, o'tinga ham o'z ulushlarini qo'shadilar. Bu arzimadek ko'ringan harakat ostida juda ulkan ma'no yotadi. Ya'ni xalqning birgalashib harakat qilishga nonu tuzini, topgan-tutganini birga **baham ko'rishga** intilish yotibdi. Navro'z bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan yana biri, **keksalarga hurmat**, ularning hollaridan xabar olish, ko'mak berishdir.*¹⁴

"Navro'z" so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "nav– yangi, "ro'z" – kun degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni "yangi kun" demakdir. Navro'z qadimdan bahor faslining, hayotning uyg'onishi, yangilanish ramzi sifatida Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining eng muhim bayramlaridan biri hisoblanib, u avlodlarni

¹⁴ Sammuslim.uz. Navro'z – milliy va an'anaviy bayram. <https://sammuslim.uz/oz/article/navroz-milliy-va-ananaviy-bayram>. (Murojaat sanasi: 27.08.2025)

qadriyatlar atrofida birlashtiradi. “*Sumalak*” atamasi xalq og‘zaki nutqi asosida shakllangan bo‘lib, tilshunoslarning ayrim fikrlariga ko‘ra, u “suyuq” va “malak” (ya’ni mazali, shirali) so‘zlarining qisqartmasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Mazkur taomning asosiy xomashyosi bug‘doy bo‘lib, uning tayyorlanish jarayoni ko‘p vaqt va mehnat talab etadi. Sumalak qadimdan tinchlik, baraka hamda sabr-toqatning timsoli sifatida qaraladi. Uni tayyorlash jarayoni esa ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lib, u jamoaviy mehnat, o‘zaro hamjihatlik, milliy o‘zlikni anglash va an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolishning amaliy ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi. “*Sabza*” Fors tilida “sabz” – yashil rang, yashillik degan ma’noni anglatadi. “*Sabza*” esa o‘simliklarning yangi ko‘kargan novdasini anglatadi. Sabza – hayot, yangilanish, poklik timsoli. Navro‘zda sabza chiqarish odati – tabiat uyg‘onishining ramzidir. Bu oddiy urf-odat emas, balki tabiat bilan uyg‘unlikda yashash, uni qadrlash, hayotni yangilash istagini ifoda etadi. “*Doshqozon*” atamasi ikki so‘z birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, “*dosh*” – og‘ir, katta o‘lchamli temir buyumni anglatadi, “*qozon*” esa – taom tayyorlanadigan an’anaviy idishni bildiradi. Bu leksik birlik turkiy tillarga mansub bo‘lib, tarixan yirik marosimlar, ommaviy bayramlar chog‘ida ko‘p miqdorda ovqat pishirish uchun ishlatilgan. Doshqozon nafaqat amaliy vazifani bajaradi, balki u mehmondo‘stlik va saxiylikning ramzi sifatida ham qaraladi. O‘zbek xalqining madaniy hayotida katta doshqozonning qaynashi – jamoaviylik, birdamlik va umumxalq ishtirokidagi tantanali marosimlarning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. “*Lapar*” O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lib, turkumli, ikki guruhli aytiladigan kuylarga aytiladi. Ba’zida “javobli qo‘shiq” deb ham ataladi. Odatda bayramlarda, sumalak pishirishda aylanma tarzda aytiladi, mazmunida muhabbat, xalq donishmandligi, topishmoq, latifa bo‘ladi. Bu xalq ijodi turi jamiyatning madaniy xotirasi, milliy ongini saqlovchi vosita ham bo‘lib hisoblanadi. “*Hamjihatlik*” atamasi etimologik jihatdan ikki komponentdan tashkil topgan bo‘lib, “*ham*” – “*birga*”, “*jihat*” esa – “*yo‘nalish*”, “*maqsad*”, “*niyat*” ma’nolarini anglatadi.

“Bizda “*Qurbon hayiti*” yoki “**Kichik hayit**” deb nomlanadigan kun diniy manbalarimizda “*Iyd al-Azha*” deb yuritiladi. “*Iyd*” so‘zi arab tilida “qayta-qayta takrorlanish”, “foyda-manfaat” ma’nolarini bildiradi. Hayit kuni har yili takror, qayta-qayta kelgani va bu kunda Allohning ne‘matlari bandalari uchun serob bo‘lgani bois, uchun uni “*iyd*” deb atashadi. “*al-Azha*” esa “**qurbonlik qilish**”, degan ma’noni anglatadi. Xalqimiz qadimdan, **Islom dini** bilan musharraf bo‘lgan kundan boshlab **Qurbon hayitini** tantanali ravishda bayram qilib nishonlab kelgan. **Iyd namozini** o‘qish uchun butun shahar ahli bir **namozgoh**ga yig‘ilgan. Namozdan so‘ng beva-bechoralar holidan xabar olish, faqiru kambag‘allarga moddiy yordam ko‘rsatish, bolalarga **hayitlik sovg‘alari** ulashish xalqimiz ichida an’anaga aylangan. *Iydga o‘tar kechaning ham o‘ziga yarasha fazilati bor. Uni butunlay yoki bir qismini, xususan, kechasining uchinchi qismini **Qur‘on tilovati, zikr, tasbeh** va **nafl** namozlar bilan bedor o‘tkazish ko‘plab yaxshiliklarga, ulkan savoblarga sabab bo‘ladi*”¹⁵

¹⁵Sarvar A. Hayit bayramidagi go‘zal odatlar. <https://kun.uz/news/2015/09/23/hayit-bayramidagi-go-zal-odatlar>. (Murojaat sanasi: 19.08.2025)

Qurbon hayiti – islom dinida ahamiyatli o‘rin tutadigan diniy va madaniy bayram bo‘lib, u fidokorlik, taqvo, va ijtimoiy birdamlik tushunchalarini ifodalaydi. Bayramning nomi va mazmuni arab tilidan kirib kelgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida *fonetik jihatdan* moslashgan (masalan, “hayit” so‘zining qisqarishi) va semantik jihatdan kengaygan. Qurbon hayiti atamasi tilshunoslik nuqtai nazaridan religiolekt (diniy til) doirasida tahlil qilinadi va ijtimoiy-lingvistik kontekstdagi o‘zgarishlar sababli turli dialektik va uslubiy shakllarda uchrashi mumkin. Endi esa yuqorida berib o‘tilgan parchaning tahliliga to‘xtalib o‘tsak. Qurbon Hayiti – islom diniga oid ahamiyatli bayram bo‘lib, ba‘zan “*kichik hayit*” yoki “*Iyd al-Azha*” nomlari bilan ham taniladi. Ushbu bayram doirasida o‘tkaziladigan *Iyd namozi* yoki *hayit namozi* – musulmonlar uchun muhim diniy marosimdir. Lingvistik tahlilda, *Iyd* so‘zi arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “*bayram*” yoki “*xursandchilik kuni*” degan ma‘noni anglatadi. O‘zbek tiliga fonetik moslashuv jarayonida bu so‘z “*hayit*” shaklida qisqarib ishlatiladi. Bayram davomida bajariladigan diniy amallar, jumladan *Qur‘on tilovati*, *zikir* va *tasbeh*, musulmonlarning diniy ehtiyojlarini va jamiyatdagi ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Shuningdek, *nafl* (ixtiyoriy ibodatlar) o‘qish ham bayramning ajralmas qismidir. Bunday diniy amallar religiolekt (diniy so‘zlashuv tili) doirasida shakllanib, islom madaniyatining o‘ziga xos so‘z birikmalarini tashkil etadi.

Tadqiqot ishida kuzatishlar hamda olib borilgan izlanishlardan shunday xulosaga kelindiki, ingliz adabiyotida xoh u badiiy asarlar bo‘lsin, xoh publitsistik matnlar ko‘p xollarda diniy bayramlar tasviri uchraydi. Badiiy asarlarda ham voqea hodisalar aynan ushbu bayramlar atrofida kechadi, ular bilan bog‘liq holda bayon qilinadi. Quyida Shorlatta Bronte qalamiga mansub Jeyn Eyr asaridan kichik bir parchalarni keltirib o‘tamiz hamda ularning izohiga to‘xtalamiz.

*Christmas and the New Year had been celebrated at Gateshead with the usual festive cheer; presents had been interchanged, dinners and evening parties given. “From every enjoyment I was, of course, excluded...”*¹⁶ Rojdestvo va Yangi yil Gateshedda odatdagidek tarzda bayramona quvonch bilan nishonlandi; sovg‘alar almashildi, tushliklar hamda kechki ziyofatlar o‘tkazildi. Bo‘layotgan har bir zavq-shafqdan albatta, men bebahra edim (tarjima o‘zimizniki). Ushbu berilgan parchada muallif tomonidan o‘ziga xos kontrast yuzaga keltirilgan, ya‘ni ajoyib bayramona kayfiyatni ifodalab beruvchi birliklar hamda mazkur holatdan bebahra qolgan qizning mungli holati. “*Usual festive cheer*” har yili takrorlanib turuvchi, an‘ana sifatida qabul qilina boshlangan holatni ifodalab keladi. Ushbu jumla muallif tomonidan o‘ziga xos “stereotipik ibora” sifatida foydalanilgan bo‘lib o‘sha davr ijtimoiy hayotini o‘ziga xos tanqid ostiga oladi, ya‘ni bunda haqiqiy bayram kayfiyati aslo yo‘q, shunchaki doimiy tarzda sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan hodisalar takrorlanayotganiga ishora qiladi. Odatda haqiqiy quvonch, shodlik va hamjihatlikning ifodasi sifatida qo‘llaniladigan birikmalar bo‘lmish *presents had been interchanged* (sovg‘alar almashinildi), *dinners and evening parties given* (kechki ovqat va ziyofatlar o‘tkazildi) ushbu asarda majhul nisbatda qo‘llanilgan (passiv nisbatda).

¹⁶ Brontë C. Jane Eyre. – Harper Collins Publishers: E-Pub Edition, 2021. – P.41.

Navbatdagi parcha ham mazkur asardan olingan bo‘lib, unda Rosdestvo tasviri hamda u bilan bog‘liq tasvirlar ifodalangan.

“She came here to a Christmas ball and party Mr. Rochester gave. You should have seen the dining-room that day-how richly it was decorated, how brilliantly lit up! I should think there were fifty ladies and gentlemen present, all of the first county families, and Miss Ingram was considered the belle of the evening. It was Christmas time, and the servants were allowed to assemble in the hall to hear some of the ladies sing and play. ...the ladies were magnificently dressed; most of them – at least the most younger ones – looked handsome; but Miss Ingram was certainly queen”.¹⁷ “U bu yerga janob Rochester tomonidan uyushtirilgan Rojdestvo kechasiga va balliga tashrif buyurgan. O‘sha kuni qani endi ovqatlanish xonasini ko‘rganingizda – naqadar hashamatli bezatilganini, naqadar yorqin yoritilganini ko‘rar edingiz. Menimcha, u yerda ellikdan ortiq xonimlar va janoblarni bor edi – ularning hammalari eng obro‘li oilalardan. Ingram xonim esa mazkur kechaning haqiqiy malikasi deb hisoblangan... Rojdestvo kuni edi, xizmatkorlarga ayollar kuylayotganini va cholg‘u chalayotganini tinglash uchun zalda yig‘ilishga ruxsat berilgan edi... xonimlar nihoyatda dabdabali kiyingan edilar; ularning ko‘pchiligi, ayniqsa yoshlari, go‘zal edilar. Ammo Ingram xonim, shubhasiz, qirolichadek edi”. Ta’kidlab o‘tganimizdek ushbu keltirib o‘tilgan parcha Rosjdestvo bayrami atrofi manzarasiga doir bo‘lib unda ko‘tarinki ruh, hashamat, ko‘ngilochar voqealar hamda jamiyatning bayram oldi birlashuviga guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” asaridan olingan ushbu parcha XIX-asr ingliz jamiyatining nikoh, ijtimoiy mavqe va gender rollari xususidagi qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Parchada raqsga qiziqish (*“fond of dancing”*) romantik hissiy munosabatlarning ibtidosi sifatida keltirilgan bo‘lishiga qaramasdan, ko‘proq mazkur davrda raqsning ijtimoiy aloqalardagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Mrs. Bennetning *“If I can but see one of my daughters happily settled at Netherfield,”*, “qizlarimdan birortasining Nezerfild bekasi bo‘lganligini ko‘rish nasib qilsa edi,...” degan so‘zlari esa ushbu davrda ota-onalar o‘z qizlarini boy va zodagon kishilarga turmushga berish yo‘lida ularga qiladigan shafqatsiz ijtimoiy bosimni ifodalaydi.

Ushbu parchada muallif ikkita o‘ziga xos bo‘lgan muhim madaniy hodisani tanqid ostiga oladi: birinchidan, raqs kabi odatlar, insonlar uchun o‘zini erkin his qilish, ko‘ngilxushlik qilish, dam olish vositasi bo‘lgan ijtimoiy faoliyatning romantik munosabatlar boshlanishi uchun “muhim bosqich” sifatida qaralishi; ikkinchidan, yangi oila parpo bo‘lishida asosiy bosqich bo‘lmish nikohdek ajoyib hodisani faqatgina moddiy va ijtimoiy barqarorlik vositasigagina aylanib borayotganligini tanqid ostiga oladi. Jumladan, Mrs. Bennet obrazi orqali muallif ota-onalarning farzandlarining baxti-kamolini emas, balki ularning ijtimoiy mavqeini oshirish va bu orqali o‘z obro‘ e’tibori hamda mavqeini ko‘tarishga bo‘lgan intilishini masxara qiladi.

O‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, milliy o‘zligini va madaniy xotirasini o‘zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-ma’naviy hodisa

¹⁷ Brontë C. Jane Eyre. – Harper Collins Publishers: E-Pub Edition, 2021. – P.78.

hisoblanadi, uning asosiy obyektini inson boʻlib, uning hayotiy kechinmalari, tabiat va jamiyat bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Oʻzbek adabiyotining negizida millatning milliy ruhiyati, dunyoqarashi, qadriyatlari hamda orzu-umidlarini ifodalash yotadi. Bular orqali muallif hayotni estetik mezonlar asosida angelaydi, uni tahlil qiladi va badiiy shaklda ifodalaydi.

Izlanishlarimiz jarayonida Oʻtkir Hoshimov qalamiga mansub asarlarda bu kabi sahnalar juda koʻp oʻrinlarda uchrashining guvohi boʻldik.

*Toʻydan fayz ketdi. Hamma mungʻayib qolgan, oppoq roʻmol ostidagi kelin boshini quyi solib oʻtirar, egniga zarbof toʻn, boshiga doʻppi kiygan kuyov uning qulogʻiga shivirlab, allanimani tushuntirar edi.*¹⁸

Ushbu berilgan parcha bayramona shukuh bilan noxushlik oʻrtasidagi contrast, yaʼni qarama-qarshilikni ifodalash bilan boshlangan. *Toʻydan fayz ketdi* iborasi tarkibidagi *fayz* leksik birligi bu milliy mentalitetda samimiyat, quvonch, baxtiyorlik kabi belgilarni bildiradi. Bu iboraning inkor shaklida kelishi toʻyning formallikka aylanganini, samimiyat, quvonchning yoʻqolganligini ifodalaydi. Shu kabi holat tasvirini ingliz adabiyoti durdonalaridan biri boʻlmish Jeyn Eyr asarida ham uchratish mumkin: *The marriage cannot go on: I declare the existence of an impediment.....Mr. Rochester moved slightly, as if an earthquake had rolled under his feet: taking a firmer footing, and turning his head or eyes..... his whole face was colourless rock: his eye was both spark and flint.*¹⁹ Ushbu keltirilgan parchada ham toʻy marosimi vaqtida toʻsatdan sodir boʻlgan baxtsizlik natijasida kayfiyatning tubdan oʻzgarib ketishi, zavq, fayz, xushchaqchqlik kabi hislar oʻrnini qaygʻu, gʻam, oʻychanlik kabilar egallaganini koʻrishimiz mumkin. Keltirib oʻtilgan *oppoq roʻmol ostidagi kelin boshini quyi solib oʻtirar, egniga zarbof toʻn, boshiga doʻppi kiygan kuyov* kabi birliklar toʻy-tomoshalarga xos boʻlgan eng asosiy freymlardan hisoblanadi. Aynan ular milliy marosim liboslari qatoriga kiritilgan boʻlib, ularning kontekstda keltirilishi albatta toʻy sahnasining kelishini bildiradi.

Oʻzbek xalq bayramlari, toʻy-u-tomoshalari, turli xil tadbirlarining hech biri kuy-qoʻshiqlar, laparlar, milliy cholgʻu asboblari bilan oʻtmaydi.

Chal! Dedi gʻayritabiiy tantana bilan. - chal deyman "Lazgi"ni chal!

*Mikrofon yana gumburlay boshladi. Shahnoza Rustam akasining raqs tushishini birinchi koʻrishi edi...*²⁰ *Bundan tashqari Rustam tishlari gʻichirlab. – Odamlar xohlaganicha toʻy qiladi. Xohlansa ertalabgacha karnay chaladi. Tushundingmi?*

*Shahnoza shundagina yoʻlakka odam toʻlib ketganini payqadi. Hech kimdan sado chiqmas, hamma u yogʻi nima boʻlishini kutib turganga oʻxshar edi.*²¹ Har ikkala berilgan parchada ham marosimlarning ajralmas qismi boʻlgan raqs turi hamda musiqiy asbob nomlari sanab oʻtilgan. Tarixdan maʼlumki, lazgi dastlab mavsumiy bayramlar boʻlmish hosil bayrami va boshqa shunga oʻxshash bayramlarning asosiy raqsi hisoblangan va u asosan Xorazm mintaqasiga xos

¹⁸ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Нурли дунё, 2024. – Б.26.

¹⁹ Brontë С. Jane Eyre. – Harper Collins Publishers: E-Pub Edition, 2021. – P.151.

²⁰ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Нурли дунё, 2024. – Б.26.

²¹ Oʻsha manba. – B.28.

bo‘lgan, keyinchalik esa u to‘ylarning ham asosiy timsollaridan biriga aylanib bordi hamda mintaqaning barcha hududlarida birday sevib qabul qilindi. Karnay esa to‘y haqida elga ovoza qiluvchi eng asosiy musiqiy asbob hisoblanib eng qadimgi davrlardan to‘ylarning asosiy darakchisi hisoblangan.

XULOSA

1. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bayramlarga doir leksika tildagi madaniy qatlamni ochib beradi. Bayramlarga oid leksik birliklar xalqning tarixiy merosi, diniy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning qo‘llanishi tilda madaniy ko‘lamni aks ettiradi. O‘zbek tilida “Navro‘z”, “Ramazon hayiti”, “Qurbon hayiti” kabi diniy va milliy bayram nomlari muhim o‘rin tutsa, ingliz tilida “Christmas”, “Easter”, “Thanksgiving” kabi bayram atamalari diniy va dunyoviy xarakterga ega. Misol tariqasida, “Navro‘z” - bahor, yangilanish va insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat timsoli bo‘lsa, “Christmas” - mehr-muhabbat, saxiylik va ruhiy uyg‘onishni ifodalaydi. Bu kabi farqli jihatlar tillardagi bayram leksikasini bevosita tarjima qilishda madaniy kontekstga e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

2. Bayramlarga oid frazeologizmlar orqali xalqning bayramlarga munosabati, hissiy dunyosi va ijtimoiy qadriyatlari ifodalanadi. Frazeologik birliklar bayramlar bilan bog‘liq turli his-tuyg‘ular, harakatlar yoki an‘anaviy holatlarni obrazli tarzda ifodalaydi. Ular ko‘pincha bevosita bayram nomi bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin, biroq bayram munosabati bilan aytiladigan ifodalar sifatida xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilida “Christmas came early!” iborasi kutilmagan quvonchli hodisani ifodalasa, o‘zbek tilidagi “Hayitingiz muborak bo‘lsin!” iborasi bayram munosabati bilan bildirgan tilak shaklida keladi. Bu frazeologizmlar madaniy konnotatsiyani aks ettiradi va tarjimada literal emas, ma‘no asosida ekvivalent topish zarurligini bildiradi.

3. Bayramlarga oid paremiologik birliklar orqali har bir xalqning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Maqol va matallar bayramlarning mohiyati, ularning ijtimoiy ahamiyati hamda bayramga tayyorgarlik jarayonidagi odob-axloq normalarini aks ettiradi. O‘zbek tilida “Hayitda hatto dushman bilan salomlash” maqoli bag‘rikenglik va kechirimlilik g‘oyasini ilgari suradi. Ingliz tilida esa “It is the season of giving” iborasi Christmas bayramining mehr va saxovatga asoslanganligini bildiradi. Bunday paremiologik birliklar orqali bayramlar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida tushuniladi.

4. Bayramlarga oid ekvivalent va ekvivalentsiz birliklar tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. O‘zbek va ingliz tillarida ayrim bayramlar butunlay o‘ziga xos bo‘lganligi uchun ularning nomlari, atributlari va ular bilan bog‘liq iboralar tarjimada muayyan izoh yoki madaniy adaptatsiyani talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi “Thanksgiving” bayrami o‘zbek madaniyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega emas va “Minnatdorchilik kuni” deb atalgani bilan bayramning tarixiy-madaniy mohiyatini to‘liq ifodalay olmaydi. Shu kabi, “Navro‘z” ingliz tilida “Persian New Year” tarzida beriladi, lekin bu holatda ham konnotativ

mazmun to'liq uzatilmaydi. Bunday hollarda tarjimonlar tomonidan madaniy kontekstga mos adaptatsiyalangan ifodalarni tanlash zarurati tug'iladi.

5. Bayramlarga doir birliklarning tahlili madaniyatlararo muloqot va tarjimada muhim vosita hisoblanadi. Dissertatsiya davomida bayramlarga oid leksik, frazeologik va paremiologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish orqali o'zbek va ingliz tillari orasidagi madaniy tafovutlar, o'xshashliklar va tarjima muammolari aniqlangan. Masalan, o'zbek tilidagi "Ramazonda ro'zadorni hurmat qilish kerak" degan ibora ijtimoiy birdamlik va diniy hurmatni ifodalasa, ingliz tilida "Keep Christ in Christmas" iborasi bayramning asl diniy mohiyatini unutmaslik zarurligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, bayram birliklarining tadqiqi orqali milliy va universal qadriyatlarning uyg'unligi hamda tafovutlari ochiladi.

6. Publitsistik matnlarda bayramlar ijtimoiy qadriyatlar va ideologiyani targ'ib qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bayramlar mavzusida chop etilgan ingliz va o'zbek publitsistik matnlari taqqoslanganda, ular orasida bayram mohiyatini yoritishdagi yondashuv va urg'u jihatidan sezilarli farqlar mavjudligi kuzatildi. O'zbek publitsistikasi ko'proq an'ana, qadriyat, diniy-axloqiy tarbiya va ijtimoiy birlikni targ'ib qilsa, ingliz publitsistikasi bayramlarni zamonaviy madaniyat, iste'mol jamiyati va global voqeliklar bilan bog'laydi. Masalan, o'zbek matnida "Navro'z – tabiat uyg'onishining timsoli" degan ifoda uchrasa, ingliz ommaviy axborot vositalarida "Christmas sales boost retail economy" kabi sarlavhalar mavjud. Bu bayramlarning jamiyatda turli ijtimoiy funksiyalarni bajarishini anglatadi. Ushbu farq har bir jamiyatda bayramlarning qanday funksiyaga ega ekanini ko'rsatadi: o'zbek publitsistik matnlarida u ruhiy-ma'naviy yangilanish vositasi sifatida ko'rilsa, ingliz publitsistikasida esa iqtisodiy va madaniy holatning indikatoridir. Bu esa til vositasi orqali madaniy ong qanday shakllanishini tahlil qilishga asos bo'ladi.

7. Ingliz badiiy adabiyotida bayramlar, ayniqsa ball sahnalari, xarakter ochilishi va ijtimoiy tafovutlarni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz badiiy asarlarida bayramlar - ayniqsa aristokratik davrga oid ball va ziyofatlar - faqatgina ijtimoiy marosim emas, balki obrazlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochuvchi dramatik vositadir. Ball sahnalari orqali mualliflar qahramonlarning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'rni, hissiyotlari va tanlovlarini chuqur ko'rsatganlar. Masalan: Jane Austenning "Pride and Prejudice" asarida ball sahnasi Elizabeth va Darcy o'rtasidagi birinchi ijtimoiy to'qnashuv va ijtimoiy qarashlar to'qnashuvining timsoli sifatida xizmat qiladi. Bu sahnalar nafaqat estetika yoki voqeani boyitish uchun, balki chuqur ijtimoiy va psixologik qatlamlarni ochish uchun qo'llaniladi. Ingliz adabiyotida bayramlar - ayniqsa Christmas va Easter - xarakter transformatsiyasi va muhim ijtimoiy tahlillarni berish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu vositalar orqali tarixiy davrlar madaniyatining ijtimoiy-axloqiy mezonlari ham yoritiladi.

8. O'zbek badiiy adabiyotida bayramlar - ayniqsa to'ylar - xalqning hayotiy falsafasi, urf-odatlar va ijtimoiy muammolarini yoritish vositasi sifatida xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida bayramlar, xususan to'ylar - xalq hayotining eng muhim ijtimoiy marosimlaridan biri bo'lib, ular orqali jamiyatdagi turli muammolar, tafakkurdagi qarama-qarshiliklar va insoniy munosabatlar yoritiladi.

Ayniqsa O‘tkir Hoshimov asarlarida to‘y marosimlari realistik, tanqidiy va ma‘naviy jihatdan boy badiiy kontekstda tasvirlangan. Masalan: “Dunyoning ishlari” romanida to‘y sahnasi orqali inson erkinligi va jamiyat bosimi o‘rtasidagi ziddiyat ochiladi. Kelin va kuyovning emas, atrofdagilarning to‘yga ta‘siri ustun. To‘y marosimlari orqali mualliflar ko‘pincha o‘zbek jamiyatidagi axloqiy mezonlar, yolg‘on obro‘, odatga sig‘inish, erk va majburiyat o‘rtasidagi murakkabliklarni ochib beradi. Bu esa badiiy adabiyotning faqat ko‘ngilochar emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy kuchga ega vosita ekanini tasdiqlaydi.

9. Bayram sahnalari orqali milliy mentalitet va madaniy kodlar ochiladi. Har bir xalq bayram orqali o‘z dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, jamiyatdagi munosabatlar va tarixiy xotirasini ifoda etadi. Ingliz adabiyotida bayram oilaviy qadriyatlar, saxovat, yolg‘izlik yoki o‘zgarish vositasi sifatida ko‘rsatilsa, o‘zbek adabiyotida u jamoatchilikning fikriga moslashish, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish, ko‘pincha qiyin tanlovlarni anglatadi. Masalan: Charles Dickensning “A Christmas Carol” asarida Rojdestvo bayrami inson qalbining yuksalishi, bag‘rikenglik va tavba qilish vositasi sifatida ishlatiladi. O‘zbek adabiyotida esa Navro‘z va to‘ylar orqali ijtimoiy bosim, qadriyatlar va mehr-oqibat muammolari yoritiladi. Bu orqali bayramlar milliy ong va madaniy kodlarning eng yorqin ko‘rinishiga aylanadi. Shuning uchun ham ularni lingvokulturologik tahlil qilish madaniyatni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

10. Bayram motivlarini til doirasida emas, balki madaniy tafakkur kontekstida taqqoslash ko‘proq samaradorlik beradi. Bayramlarga oid birliklarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularni tildagi formal farqlar asosida emas, balki har bir xalqning madaniy dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilish ko‘proq ilmiy asosga ega. Til birliklari bayram mohiyatini o‘zida aks ettirsa-da, bu birliklarning ma‘nosi har bir xalqda turlicha tushuniladi. Masalan, o‘zbek madaniyatida “To‘y – ikki qalbning birlashuvi” degan ibora ko‘pincha ijtimoiy majburiyat, urf-odat va jamoatchilik nazariga muvofiq qaror sifatida talqin qilinsa, ingliz adabiyotida “Christmas” yoki “Thanksgiving” kabi bayramlar shaxsiy ruhiy o‘zgarish, o‘zlikni anglash va kechirim mavzulari bilan boyitilgan. Shu bois, bayram birliklarini tarjima qilishda yoki taqqosiy tahlil etishda faqat leksik muvofiqlik bilan cheklanmasdan, har bir bayramning madaniy, diniy va tarixiy zaminini chuqur anglash lozim bo‘ladi. Bu yondashuv orqali madaniyatlararo muloqotda yanada chuqurroq anglash, empatiya va madaniy sezgirlik rivojlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

АСЛОНОВ ФИРДАВС БАХТИЁР УГЛИ

**АКТУАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА “ПРАЗДНИК” В ЯЗЫКОВОЙ
КАРТИНЕ МИРА (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil1990.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Насруллаева Нафиса Зафаровна,**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Сулайманова Нилуфар Джаббаровна**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Рустамов Илхом Турсунович
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
профессор

Ведущая организация: **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «29» Мая 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел:(99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под №63163). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «13» Мая 2026 г.
(реестр протокола рассылки №34 от «13» Мая 2026 г.)



Т.А. Бушуй
заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность диссертации. В современной мировой лингвистике анализ национально-культурной, когнитивно-ментальной и языковой картины мира, в особенности выявление особенностей выражения ментально-психологических ценностей различных народов посредством языка, формируется как одно из приоритетных направлений. Сравнительное изучение выразительных средств, сходных или различающихся по содержанию и форме в разных языках, а также анализ концептуальных единиц, обеспечивающих межкультурное понимание, служат важной составной частью современных лингвистических исследований. В частности, концепт «праздник», представляющий собой когнитивно-ментальную категорию и интегрирующий в себе ряд национально-культурных, нравственно-эстетических и социальных ценностей, делает актуальным выявление его языковых репрезентационных особенностей и анализ универсальных и этноспецифических свойств данного концепта. В рамках этого концепта гармония общечеловеческих, научно-просветительских и духовно-культурных ценностей, а также формы его проявления в мышлении и языковой системе различных народов подвергаются детальному изучению в контексте лингвистических исследований.

